

**FAN, TA'LIM,
TEXNOLOGIYA VA
ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA
RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI NOMLI IV ILMIY-
AMALIY ONLAYN
KONFERENSIYA**

KONFERENSIYA YO'NALISHLARI:

- **FAN VA TA'LIM
INTEGRATSIYASI**
- **TEXNOLOGIYALAR VA ISHLAB
CHIQARISH INTEGRATSIYASI**
- **IQTISODIY RIVOJLANISH VA
INNOVATSION EKOSISTEMALAR**
- **ISHLAB CHIQARISH VA
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA**
- **KADRLAR TAYYORLASH VA
INNOVATSIYALARNI
AMALIYOTGA JORIY ETISH**
- **BARQAROR RIVOJLANISH VA
EKOLOGIK INNOVATSIYALAR**

**ILMIY KONFERENSIYA
2025-YIL**



Research Science and
Innovation House



FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

« FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI » ilmiy konferensiyasi:

30.11.2025-yil.

Ushbu to'plamda « FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI » ilmiy konferensiyasi 2025-yil 2-soni 9-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Konferensiya tarkibidagi barcha maqolalarga DOI unikal raqami biriktirilib, **Zenodo, Open Aire, Google Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Konferensiya materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Konferensiya materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.



Research Science and
Innovation House

“RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION HOUSE”

MCHJ

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

TAHRIRIYAT

Bosh muharrir: Eshqarayev Sadridin Choriyevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrası mudiri, kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O‘zbekiston.

Mas’ul kotib:

Boboyorov Sardor Uchqun o‘g‘li Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali magistranti

Nashrga tayyorlovchi:

Eshqarayev Samariddin Sadridin o‘g‘li Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti magistranti

TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI

Texnika fanlari muharriri, Eshqarayev Ulug‘bek Choriyevich – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrası dotsenti, texnika fanlari nomzodi, Denov, O‘zbekiston.

Texnika fanlari muharriri Babamuratov Bekzod Ergashevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiyot fakulteti dekani, texnika fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O‘zbekiston.

Kimyo fanlari muharriri Mirabbos Xojamberdiev Ikromovich- Berlin Technische Universität dotsenti, kimyo fanlari doktori, Berlin, Germaniya

Kimyo fanlari muharriri, Eshqurbonov Furqat Bozorovich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, kimyo fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Iqtisodiyot fanlari muharriri Otamurodov Shavkat Tillayevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti prorektori, iqtisod fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Ijtimoiy va gumanitar fanlar muharriri, Xudoyberdiyev Xursand Xudoyberdiyevich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, ijtimoiy-gumanitar fanlar doktori, Termiz, O‘zbekiston.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Tibbiyot fanlari muharriri Otamurodov Furqat Abdulkarimovich, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali direktori, Termiz, O'zbekiston tibbiyot fanlari falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston.

Biologiya fanlari muharriri Nurova Zamira Annakulovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali. Termiz, O'zbekiston, biologiya fanlari doktori, dots., Termiz, O'zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Turabayeva Zarina Kenjabekovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, tibbiyot falsafa fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Sotsiologiya fani muharriri Eryigitova Lobar Qodirovna Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa sotsiologiya fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Jo'rayeva Ramziya Abdurahimovna Qo'qon davlat pedagogika instituti. Qo'qon, O'zbekiston filologiya fanlari fanlari doktori (PhD), katta o'qituvchi.

Fizika-matematika-fanlari muharriri Bobamuratov Ulug'bek Erkinovich Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa fanlari doktori, fizika-matematika-fanlari, Termiz, O'zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Axmedov Kamoliddin Xakimovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son davolash fakulteti dekani, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tibbiyot fanlari muharriri Vohidov Alisher Shavkatovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi va bolalar urologiyasi kafedrasini mudiri Tibbiyot fanlari doktori, professor

Gumanitar fanlar muharriri Rahmonov Abduqahhor Abdusattorovich Ma'naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo'yicha direktor o'rinbosari, falsafa fanlari doktori (PhD)

**RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANK TIZIMI AMALIYOTLARINI
O'ZBEKISTON BANK SEKTORIGA TATBIQ ETISHNING SAMARALI
MEXANIZMLARI**

Eshqorayev Javohir

*Termiz Davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, Iqtisodiyot,
o'rmonchilik va veterinariya fakulteti Buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishi
talabasi*

[*eshqorayevjavohir@gmail.com*](mailto:eshqorayevjavohir@gmail.com)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada moliyaviy tizim barqarorligini baholashda keng qo'llaniladigan Z-baho (Z-score) metodikasining nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Z-baho ko'rsatkichining asosiy iqtisodiy mazmuni, uning tarkibiy elementlari hamda bankrotlik xavfini oldindan aniqlashdagi o'rni izohlanadi. Tadqiqotda rivojlangan davlatlar (G-7 mamlakatlari), BRICS davlatlari va Markaziy Osiyo mamlakatlari bank tizimlarining Z-baho ko'rsatkichlari solishtirilib, moliyaviy barqarorlik darajasidagi farqlar tahlil qilinadi. Metodikaning ustunliklari bilan bir qatorda, uning cheklovlari ham ko'rsatilib, ayniqsa, tizimli tavakkalchilikni hisobga olmasligi va faqat buxgalteriya ma'lumotlariga asoslanishi tufayli natijalarni noto'g'ri talqin qilish ehtimoli qayd etiladi. Tadqiqot natijalari Z-baho usulini kompleks yondashuv asosida boshqa barqarorlik indikatorlari bilan uyg'unlashtirish zarurligini taklif qiladi.

KALIT SO'ZLAR

Z-baho, moliyaviy barqarorlik, bank tizimi, bankrotlik xavfi, kapital koeffitsienti, rentabellik, tizimli tavakkalchilik, aktivlar rentabelligi, moliyaviy indikatorlar, iqtisodiy barqarorlik.

Bugungi globallashuv jarayoni va iqtisodiy barqarorlikning o'zgaruvchan sharoitida korxonalar hamda moliyaviy tashkilotlarning mustahkam faoliyat ko'rsatishi muhim masalalardan biriga aylangan. Korxonaning moliyaviy barqarorligini oldindan baholashga, shuningdek, uning kelgusidagi barqarorlik darajasini prognoz qilishga yordam beruvchi usullardan biri — bu Z-baho (Z-score) metodikasidir. Ushbu ko'rsatkich korxonaga yoki moliyaviy institutning bankrotlik xavfi ehtimolini aniqlashda keng qo'llanilib keladi. Biroq Z-baho usuli bir qator cheklovlarga ega bo'lib, ayniqsa moliyaviy tizim tarkibiy bog'liqliklarini to'liq aks

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-9**

ettirmasligi bilan ajralib turadi. Mazkur maqolada Z-baho metodining nazariy asoslari, uning amaliy qo'llanish holatlari hamda rivojlangan davlatlar va Markaziy Osiyo hududidagi Z-baho qiymatlari taqqoslab tahlil qilinadi. Bundan tashqari, uslubni takomillashtirishga ehtiyoj mavjudligi asoslab beriladi.

Moliyaviy barqarorlikning haqiqiy qiymati aynan iqtisodiy beqarorlik davrlarida yaqqol seziladi. Bunday sharoitlarda banklar yuqori daromadli loyihalarga kredit ajratishni qisqartiradi, aktivlar qiymati ularning haqiqiy bahosidan keskin chetlanadi, to'lovlar muddatida amalga oshirilmaydi. Bunday vaziyat inqiroz, giperinflyatsiya hamda fond bozorining qulashi kabi og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. Natijada iqtisodiy tizimga bo'lgan ishonch pasayadi.


Alohida korxonalar darajasida barqarorlikni baholashning keng tarqalgan usullaridan biri bu Z-baho ko'rsatkichidir. Ushbu baho bankning beqarorlikka duch kelish ehtimolini kapital buferlari (k — kapitalning aktivlardagi ulushi) va rentabellik darajasi (μ) bilan risk ko'rsatkichlarini (σ — rentabellik o'zgaruvchanligi) solishtirish orqali aniqlaydi:

$$Z \equiv k + \mu \sigma Z \equiv \frac{k + \mu}{\sigma} Z \equiv \sigma k + \mu$$

Z-bahoning keng qo'llanishi uning beqarorlik ehtimoli bilan teskari bog'liq bo'lishi bilan izohlanadi: Z qiymati qanchalik yuqori bo'lsa, bankrotlik xavfi shunchalik past bo'ladi. Ushbu uslubni qo'llagan ilmiy tadqiqotlar Boyd & Rankl (1993), Beck, Demirgüç-Kunt va Levine (2007), Demirgüç-Kunt, Detragiache va Tressel (2008), Laeven & Levine (2009), Čihák & Hesse (2010) ishlarida uchraydi.

Z-baho usulining asosiy kamchiliklaridan biri shundaki, u faqat buxgalteriya hisobotlariga tayanadi. Agar moliyaviy tashkilotlar hisobotdagi ma'lumotlarni maqsadli ravishda ijobiy tomonga o'zgartirsalar, Z-baho institut barqarorligi haqida haqiqatga to'liq mos kelmaydigan xulosa berishi mumkin. Shuningdek, ushbu usul moliya tizimidagi o'zaro zanjirli ta'sirni hisobga olmaydi, ya'ni bir bankdagi inqirozning boshqalarga ta'sir mexanizmi aks etmaydi. Biroq, Z-bahoning afzalligi shundaki, u bozor ma'lumotlari mavjud bo'lmagan sharoitda ham qo'llashga imkon beradi.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-9




Rivojlangan mamlakatlarda Z-baho (1-rasm)

G-7 davlatlari ichida AQSH Z-baho bo'yicha yetakchi bo'lib, so'nggi o'n yillik davomida ko'rsatkich 30–35% atrofida tebranib kelmoqda. Fransiyada mazkur ko'rsatkich 16–20% oralig'ida saqlanmoqda. Buyuk Britaniyada 2012-yilda 8,7% bo'lgan Z-baho 2021-yilga kelib 18,1% gacha oshgan.

Yaponiyada esa 16% dan 12% gacha pasayish kuzatilgan, bu barqarorlikning susayishidan dalolat beradi.


Germaniya, Italiya va Kanada 13–16% diapazonida barqaror ko'rsatkichlarni namoyish etmoqda.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-9



Rivojlanayotgan mamlakatlarda Z-baho (2-rasm)

BRICS davlatlarida Xitoy yuqori natijani qayd etib, ko'rsatkichni 5,2% bandga oshirgan holda 25% gacha yetkazgan. Braziliya, Hindiston va JAR ko'rsatkichlari 15–20% oralig'ida bo'lsa-da, 2019–2020-yillarda pul-kredit siyosati kamchiliklari tufayli pasayish kuzatilgan. Rossiyada esa Z-baho 5,4–6,9% oralig'ida bo'lib, barqarorlikning past darajasini ko'rsatadi.



3-rasm. Markaziy Osiyo mamlakatlarining Z-baho ko'rsatkichlari, foizda

XULOSA

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, Z-baho usuli bank va korxonalarining moliyaviy barqarorlik darajasini aniqlashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Rivojlangan mamlakatlarda Z-baho ko'rsatkichlarining yuqoriligi moliyaviy tizimning mustahkamligi, boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi va bozor muhitining yetukligi bilan bog'liq. Rivojlanayotgan davlatlarda esa iqtisodiy xavflar, valyuta tebranishlari, institutsional noaniqliklar va pul-kredit siyosatidagi o'zgarishlar sabab Z-baho qiymati nisbatan past bo'lishi kuzatiladi. Shu bilan birga, usulning faqat buxgalteriya ma'lumotlariga tayanishi va tizimli risklarni hisobga olmasligi uning to'liq universal baholash vositasi bo'la olmasligini ko'rsatadi. Shuning uchun Z-bahodan foydalanish moliyaviy barqarorlikning boshqa zamonaviy ko'rsatkichlari bilan uyg'unlashtirilgan holda amalga oshirilishi kerak. Bu esa iqtisodiy tizim barqarorligini aniq, chuqur va ishonchli baholash imkonini beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Altman, E. I., & Hotchkiss, E. (2006). *Corporate Financial Distress and Bankruptcy: Predict and Avoid Bankruptcy, Analyze and Invest in Distressed Debt* (3rd ed.). Wiley Finance.
2. Hossari, G., & Rahman, S. (2005). A Comprehensive Review of Z-score Models. *Journal of American Academy of Business*, Cambridge, 6(1), 321–326.
3. International Monetary Fund (IMF). (2022). *Financial Soundness Indicators Compilation Guide*. Washington, D.C.
4. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки. (2023). *Молиявий барқарорликни баҳолаш услублари ва кўрсаткичлари*. Тошкент.

**OLIY TA'LIMDA NAZARIYA VA AMALIYOTNI UYG'UNLASHTIRISH
MUAMMOSI (pedagogik tadqiqotlar va zamonaviy yondashuvlar asosida).**

Mamajonova Zulfizarxon Madaminovna
Andijon davlat universiteti
Psixologiya va pedagogika kafedrasida dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida nazariya va amaliyotning uyg'unlashuvi muammosi tahlil qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab universitetlarda talabalar nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanib qoladi, amaliy ko'nikmalar esa yetarlicha shakllantirilmaydi. Maqolada oliy ta'lim muassasalaridagi pedagogik yondashuvlar, zamonaviy raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlar asosida yechimlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, nazariya, amaliyot, pedagogik innovatsiyalar, kompetensiyalar.

Oliy ta'lim muassasalarida nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish muammosi nafaqat talabalar tayyorgarligida, balki ish bozoriga moslashuv, innovatsion faoliyatga tayyorlik va jamiyatning ilmiy-texnik rivojlanishida ham seziladi. Ko'plab tadqiqotlarda oliy ta'limning maqsadi sifatida quyidagicha qarashlarga ko'zingiz tushadi, talabalarni nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko'nikmalar bilan ta'minlashdir. Biroq ko'plab pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, universitetlarda amaliyot bilan nazariyaning uyg'unlashuvi yetarli darajada emas (Sobko va Krysovatty, 2023¹; To'xliyev va Karimov, 2023²).

Nazariya va amaliyot o'rtasidagi uyg'unlik oliy ta'limning samaradorligini oshiradi. Masalan, Schumpeter (1934) va Drucker (2022)³ tadbirkorlik va innovatsiyalarni o'rgatishda nazariy bilimlarning amaliyotga tatbiqi zarurligini ta'kidlaydi.

O'zbekistonda oliy ta'limda nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish bo'yicha bir qancha dasturlar ishlab chiqilgan: startup inkubatorlar, laboratoriya bazalari, amaliyot grantlari va xalqaro hamkorlik loyihalari (Mirziyoyev, 2022⁴; To'xliyev va Karimov,

¹ Sobko, O., & Krysovatty, I. (2023). Assessment of the influence of intellectual potential on the development of innovative entrepreneurship in Ukraine. *Ekonomichnyy analiz*.

² To'xliyev B., Karimov M. Innovatsion iqtisodiyot va intellektual tadbirkorlik asoslari. Iqtisodiyot nashriyoti. Toshkent-2023

³ Drucker, P. F. (2022). *Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles* (Updated ed.). Routledge.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son Farmoni.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY JURNALI
VOLUME-2, ISSUE-9**

2023). Biroq tizimli yondashuv, o'quv dasturlarining integratsiyasi va resurslarni teng taqsimlash hali ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish muammosi sabablari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- nazariy va amaliy mashg'ulotlarning ajralganligi — darslar ko'p nazariyaga, laboratoriyalar esa cheklangan resurslarga ega;
- o'qituvchilarning yetarlicha amaliy tajribaga ega emasligi;
- talabalar motivatsiyasining pastligi va amaliy mashg'ulotlar uchun yetarli resurslar mavjud emasligi;
- texnologik vositalar yetishmasligi, masofaviy va raqamli amaliyot imkoniyatlari cheklangan.

Ushbu muammo sabablari borasidagi masalalarga quyidagi yechimlarni taklif qilindi:

- Integratsiyalashgan o'quv dasturlari: nazariy bilim va amaliy mashg'ulotlar o'quv rejalarida uzviy bog'langan bo'lishi; loyiha ishlari va laboratoriya mashg'ulotlari majburiy kiritilishi.
- Pedagogik va amaliy tajriba almashinuvi: o'qituvchilarni sanoat korxonalari bilan hamkorlikda amaliyotdan o'tkazish; talabalarni real ish jarayonlariga jalb qilish.
- Raqamli va innovatsion platformalar joriy etish: virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va interaktiv platformalar; online project-based learning vositalarini keng qo'llash.
- Talabalar motivatsiyasini oshirish: amaliyot natijalarini baholash tizimi; innovatsion g'oyalarni rag'batlantiruvchi grant va stipendiyalar.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish muammosini — talabalarni raqamli va real ish bozoriga tayyorlashda asosiy to'siq sifatida qarash zarur. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion metodlar va raqamli vositalar ushbu muammoni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston sharoitida tizimli integratsiya, laboratoriya bazalarini rivojlantirish va motivatsion mexanizmlar yaratish orqali nazariya va amaliyot uyg'unlashuvi yaxshilanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son Farmoni.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY JURNALI
VOLUME-2, ISSUE-9**

2. Sobko, O., & Krysovaty, I. (2023). Assessment of the influence of intellectual potential on the development of innovative entrepreneurship in Ukraine. Ekonomichnyy analiz.

3. To'xliyev B., Karimov M. Innovatsion iqtisodiyot va intellektual tadbirkorlik asoslari. Iqtisodiyot nashriyoti. Toshkent-2023

4. Drucker, P. F. (2022). Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles (Updated ed.). Routledge.



CROSS-CULTURAL COMPARISON OF LEXICAL INTENSIFICATION IN
POLITICAL NEWS DISCOURSE

Tadjiyeva Mokhirakhon Djaxangirovna
Tashkent State University of Oriental Studies
Teacher of the Department of Western Languages
E-mail: mokhira.tadjiyeva@gmail.com
Phone: 93 5081889

Annotation. This article examines the cross-cultural features of lexical intensification in English and Uzbek political news discourse. The study investigates how journalists in both languages use intensifiers such as scalar adverbs, extreme adjectives, hyperbolic expressions, and culturally embedded evaluative units to shape ideological framing and influence audience perception. By comparing representative political news texts, the research identifies structural, semantic, and pragmatic similarities and differences in the use of intensified vocabulary. The findings show that English political discourse tends to employ graded lexical choices for subtle persuasion, whereas Uzbek discourse relies more heavily on emotionally charged and culturally resonant expressions. Overall, the analysis reveals how linguistic and cultural norms shape the communicative strategies of political media.

Keywords: lexical intensification, political discourse, pragmatics, evaluation, cross-cultural comparison, ideology, intensifiers, media language.

Introduction. Lexical intensification plays a critical role in shaping the persuasive power and ideological framing of political news discourse across cultures. In political communication, where attitudes, evaluations, and power relations are constantly negotiated, intensifiers serve as key linguistic tools for strengthening meaning, amplifying emotional impact, and guiding readers' interpretations. Political news texts often rely on intensified vocabulary to highlight urgency, dramatize events, legitimize certain actors, or delegitimize others. As a result, lexical intensification has become a central subject of study in modern pragmatics, critical discourse analysis, and media linguistics. English and Uzbek political news discourse employ intensification strategies that reflect each language's structural characteristics and cultural communication norms¹. English political media frequently uses scalar adverbs (*highly, deeply, strongly*), extreme adjectives (*critical, severe, unprecedented*), and

¹ Fairclough, N. (1995). *Media Discourse*. London: Edward Arnold, pp. 76–121.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY JURNALI
VOLUME-2, ISSUE-9**

metaphorical amplifiers (*political storm, economic meltdown*) to create evaluative nuance while maintaining an impression of journalistic objectivity.

Conversely, Uzbek media tends to rely more heavily on emotionally charged evaluative expressions, reduplication (*keskin-keskin, tez-tez*), and culturally embedded idiomatic intensifiers (*jiddiy xavotir bildirildi, muhim qadam bo'ldi*). These forms serve to heighten emotional resonance, strengthen solidarity with the audience, and reflect traditional rhetorical patterns in Uzbek political discourse. The cross-cultural comparison of intensifiers in political media reveals not only linguistic contrasts but also differing ideological strategies. While English discourse tends to favour graded, subtle forms of persuasion, Uzbek discourse demonstrates a preference for explicit, overtly expressive forms of emphasis. Such differences underscore how linguistic systems and cultural expectations shape political communication styles.

This study aims to examine the lexical strategies of intensification used in English and Uzbek political news and to uncover their pragmatic functions within broader ideological frameworks. By exploring how each language constructs emphasis, the research contributes to a deeper understanding of cross-cultural political discourse and its communicative mechanisms². A comparative analysis of English and Uzbek political news discourse demonstrates that lexical intensification is used systematically to reinforce ideological messages, foreground evaluative meanings, and shape public perception. In English political texts, intensifiers predominantly appear in the form of scalar adverbs (*highly controversial, deeply concerned*), extreme adjectives (*critical, severe, unprecedented*), and metaphorical amplifiers (*political storm, diplomatic breakthrough*). These forms contribute to subtle persuasion, allowing news writers to express stance while maintaining a façade of neutrality. English discourse thus reflects a preference for graded evaluative nuance rather than overt emotional appeal. Uzbek political media, in contrast, frequently relies on reduplication, evaluative phrases, and phraseological intensifiers³. These units carry stronger emotional colouring and often mirror traditional rhetorical norms, providing immediacy and cultural resonance to political reporting. Such intensification methods help create a persuasive tone that aligns with audience expectations for expressive, direct commentary.

Across both languages, intensification is especially concentrated in coverage of elections, diplomatic conflicts, economic crises, and government decisions. Pragmatically, these intensifiers function to persuade, legitimate or delegitimize

² Van Dijk, T. A. (2006). *Politics, Ideology, and Discourse*. Elsevier, pp. 15–52.

³ Partington, A. (2004). "Corpora and Discourse: A Most Congruous Beast." In: *Corpora and Discourse*, Palgrave Macmillan, pp. 131–165.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY JURNALI
VOLUME-2, ISSUE-9**

political actors, dramatize events, and guide evaluative interpretation⁴. The differences observed illustrate how linguistic typology and cultural communication styles shape the expression of emphasis in political discourse.

Table. Lexical intensification in English vs. Uzbek political news discourse.

Category	English Political Discourse	Uzbek Political Discourse	Pragmatic Function (Both)
Scalar adverbs	<i>highly, deeply, strongly, sharply</i>	Kam uchraydi; ba'zan juda, nihoyatda	Muvozanatli, nazoratlangan baholash yaratish; hissiylikni me'yorda oshirish
Extreme adjectives	<i>critical, severe, unprecedented, significant</i>	<i>keskin, jiddiy, muhim, favqulodda</i>	Hodisaning ahamiyatini kuchaytirish, siyosiy urg'u berish
Metaphorical amplifiers	<i>political storm, economic meltdown, diplomatic battlefield</i>	<i>katta siljish, siyosiy bosim kuchaydi, kamroq metaforik</i>	Voqeani drammatizatsiya qilish, o'quvchi tasavvuriga kuchli ta'sir qilish
Reduplication	Deyarli qo'llanmaydi	<i>juda-juda, tez-tez, keskin-keskin</i>	Emotsional bosimni oshirish, tezlik yoki keskinlikni kuchaytirish
Evaluative word pairs	<i>serious concern, strong disagreement</i>	<i>jiddiy xavotir, keskin tanqid, qat'iy bayonot</i>	Rasmiy baholashning kuchaytirilgan shaklini berish
Phraseological intensifiers	<i>deep concerns were raised, strong calls emerged</i>	<i>katta e'tibor qaratildi, muhim burilish yasadi</i>	Siyosiy voqealarga "katta ahamiyat" berish, ijtimoiy rezonans yaratish
Hyperbolic expressions	<i>massive crisis, shocking outcome, enormous pressure</i>	<i>nihoyatda muhim, keskin o'zgarish, favqulodda vaziyat</i>	E'tiborni tortish, siyosiy jarayonlarni

⁴ Wodak, R. (2015). *The Politics of Fear: What Right-Wing Populist Discourses Mean*. Sage Publications, pp. 41–89.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY JURNALI
VOLUME-2, ISSUE-9**

			kuchli emotsional baholash
Connotative lexis	<i>radical shift, fierce debate, growing tensions</i>	<i>og'riqli masala, dolzarb muammo, xavotirli holat</i>	O'quvchida hissiy reaksiya uyg'otish
Culturally embedded units	Kamroq qo'llanadi	<i>xalqaro hamjamiyatning qat'iy pozitsiyasi, xalq kutgan qaror</i>	Milliy qadriyatlar bilan uyg'un emotsional urg'u berish
Overall strategy	Subtil, nazoratlangan, diplomatik intensifikatsiya	Ochiq, ekspressiv, emotsional intensifikatsiya	Siyosiy pozitsiyani mustahkamlash va o'quvchini yo'naltirish

The comparative examination of lexical intensification in English and Uzbek political news demonstrates that both languages strategically employ intensified vocabulary to construct evaluative meaning and shape public perception. English discourse favours subtle, graded forms of emphasis through scalar adverbs, extreme adjectives, and metaphorical amplification, creating a controlled persuasive tone. Uzbek political media, however, relies more heavily on reduplication, evaluative pairs, and culturally embedded phraseological units, producing emotionally charged and rhetorically expressive narratives⁵. These differences reflect broader cultural and linguistic preferences, illustrating that intensification is not only a stylistic device but a pragmatic resource used to guide interpretation and reinforce ideological framing.

Conclusion. The study concludes that lexical intensification plays a crucial pragmatic role in shaping the tone, emotional resonance, and ideological framing of political news discourse in both English and Uzbek languages. While English political media tends to employ balanced, graded intensifiers such as scalar adverbs and extreme adjectives Uzbek media relies on more explicit and expressive methods, including reduplication, evaluative word pairs, and culturally motivated phraseological units. These divergent strategies reflect each language's typological features and cultural communication norms, influencing how political events are framed and perceived by audiences.

⁵ Biber, D., Conrad, S., & Leech, G. (2002). Longman Student Grammar of Spoken and Written English. Longman, pp. 113–154.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY JURNALI
VOLUME-2, ISSUE-9**

Overall, the findings reveal that intensification in political discourse is not merely a stylistic choice, but a purposeful pragmatic mechanism used to strengthen arguments, dramatize developments, and guide interpretive perspectives. Understanding these cross-cultural patterns enhances discourse analysis, improves translation accuracy, and deepens insights into political language across different cultural contexts.

REFERENCES:

1. Biber, D., Conrad, S., & Leech, G. (2002). Longman Student Grammar of Spoken and Written English. Longman, pp. 113–154.
2. Fairclough, N. (1995). Media Discourse. London: Edward Arnold, pp. 76–121.
3. Partington, A. (2004). “Corpora and Discourse: A Most Congruous Beast.” In: Corpora and Discourse, Palgrave Macmillan, pp. 131–165.
4. Van Dijk, T. A. (2006). Politics, Ideology, and Discourse. Elsevier, pp. 15–52.
5. Wodak, R. (2015). The Politics of Fear: What Right-Wing Populist Discourses Mean. Sage Publications, pp. 41–89.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY JURNALI
VOLUME-2, ISSUE-9

ONA TILI O'QITISHDA O'QUVCHILAR TARBIYASIDA MILLIY VA
UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O'RNI VA ROLI

Jovliyev Jo'rabek Alisher o'g'li,

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Yoshlar tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rni beqiyos ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Yoshlar ta'lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlar orqali tarbiyalash muhimligi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, odob-axloq, ta'lim, tarbiya.

Аннотация: показано, что роль национальных и общечеловеческих ценностей в воспитании молодежи неопределима. Отмечена важность воспитания молодежи через национальные ценности в учебно-воспитательном процессе.

Ключевые слова: молодежь, национальные и общечеловеческие ценности, нравственность, образование, воспитание.

Abstract: it is shown that the role of national and universal values in the education of young people is invaluable. The importance of educating young people through national values in the educational process was noted.

Keywords: youth, national and universal values, morality, education, upbringing.

Kirish. Yoshlar tarbiyasi haqida gap ketganda uni milliy va umuminsoniy qadriyatlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Qadim tarix sahifalarida ulug' donishmandlar bitiklarida, xalqning ruhi va qalbini ifodalovchi rivoyatu hikoyatlarda, ilg'or va hur fikrli ijodkorlar, san'atkorlar, siyosat namoyandalarining ma'naviy-ma'rifiy meroslarida ulug' qadriyatlar silsilasi namoyondir. Ular ezgulik g'oyalari bilan jilolangan durdonalardir. "Bori yaxshilig' qilg' ilkim, ondin yaxshi yo'q, Kim degaylar dahr aro qildi falondin yaxshilig'" degan Boburning ezgu qarashlari butun-butun avlodlarga ibrat namunasi. Yaxshilik chinakam insoniylik bo'lib, u xalqimizning insonparvarlik qarashlarining mehr-oqibatlilik fazilatining ifodasidir. Ota-bobolarimiz o'z turmushlarida doimo yaxshi niyat bilan, orzu-istaklarini ularda jo qilib yashaganlar, ular o'zlarining yaxshi nomlari bilan butun jahonga dong taratganlar. Sohibqiron Amir Temur "Yaxshilarga yaxshilik qildim, yomonlarni esa o'z yomonliklariga topshirdim.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY JURNALI
VOLUME-2, ISSUE-9**

Kim menga do'stlik qilgan bo'lsa, do'stligi qadrini unutmading va unga muruvvat, ehson, izzatu ikrom ko'rsatdim"[5], degan.

Tadqiqot metodologiyasi: Jahonni qamrab olayotgan globalizatsiya jarayoni inson ongi va tafakkuriga bevosita o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri ekanligini Muhtaram Prezidentimiz ham o'z so'zlarida ta'kidlab turibdi. "Bizning havas qilsa arziydigan tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Men ishonamanki, Xudo xohlasa, havsa qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham, albatta, bo'ladi"[3], degan edi Muhtaram Prezidentimiz Toshkent shahri vakillari bilan saylovoldi uchrashuvidagi nutqida.

Kundalik moddiy hayotni yaxshilash va qulaylashtirish uchun yaratilgan barcha texnologiyalar insonni ham aqlan, ham jismonan kam kuch sarflashga, buning natijasida ayniqsa kichik yoshdagi bolalar, maktab o'quvchilarida tafakkur rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ularning jismoniy va aqliy o'yinlardan ko'ra virtual o'yinlarni avfzal ko'rayotgani bunga yaqqol misoldir. Mustaqil fikrlashga o'rgatadigan zamonaviy metodlardan foydalanish lozimki, bu metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida zamonaviy ta'limda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassam etishi lozim.

Yaxshilik komil tarbiya ko'rgan kishilarga xos bo'lib, bu ma'naviyat bilan bog'lanadi. Ma'naviyatlilik esa, avvalo, o'zlikni anglash bilan bog'lanadi. "O'z xalqi tarixini bilmagan millatlar xotira va idroklarini yo'qotib qo'ygan dovdirlarga o'xshaydi."[6]

Demak, ma'naviyat to'g'rilikka eltuvchi yo'l, aniqroq aytganda, to'g'rilik-rostlikning o'zidir.

"Ma'naviyat tushunchasi asosida rostlik, haqqoniylik, to'g'rilik mujassamdir. Misol: odamlar payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ni "amin", Amir Temur bobomizni do'stlari va raqiblari "rostgo'y" deyishgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev haqida xalqimiz "to'g'ri so'z", "adolatli odam", "so'zi bilan ishi bir odam ekan" deyishmoqda. Hadislarda "Iymondan keyin keladigan, ammo iymon qadar aziz turadigan so'z bormi?"- deb so'rashganda, Payg'ambarimiz: "Bor, u so'z lafzdir", deganlar. Lafz esa to'g'rilikdir. Biz to'g'rilik zamonida yashayapmiz"[3]

Ajdodlarning boy madaniy merosi Markaziy Osiyo xalqlarining qonuniy milliy iftixoridir. Masalan, "Xalqimizning o'ziga xos turmush tarzi, tafakkur va dunyoqarashi, hayotga, voqelikka munosabatining ifodasi bo'lgan xalq og'zaki ijodi namunalari, "Alpomish", "Shashmaqom" kbidurdonalari ma'naviyatning bitmas-tuganmas manbai, yoshlarimiz dunyoqarashining asosidir. Feodalizm davridayoq Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy ongining asosiy xususiyatlari bilimga, dunyoviy ma'rifatga intilish; salaflarning madaniy yutuqlaridan keng foydalanish; tabiatni

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY JURNALI
VOLUME-2, ISSUE-9**

bilishga, uning boyliklaridan inson manfaatlari yo'lida foydalanishga intilish; ratsionalizm; hurfikrlilikning rivojlanishi; axloqiy qadriyatlarni hamda insoniy fazilatlarini tarannum etishda, tabiatning eng oliy xilqati bo'lmish insonga munosabatda namoyon bo'ladigan gumanizm; og'zaki va yozma so'zga muhabbat; kishi ma'naviy dunyosini shakllantirishga intilishdan iborat bo'lgandi.

Milliy merosni o'rganish, tiklash va targ'ib qilishning mohiyati, milliy va umumbashariy ahamiyati, tarixiy-madaniy merosga munosabat konsepsiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi masalasining aks etishi muammosi kelgusidagi ijtimoiy fanlar sohasida yangi yo'nalishlarga, tadqiqotlarga asos bo'lib xizmat qilishi shubhasiz. Chunki tarixiy-madaniy merosimizning tiklanishi jamiyatimizni yangilash va hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir.

Bu borada "Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona" degan shior doimiy kun tartibida turishi lozim. Biz yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur".[1]

Ma'lumki, inson shaxs sifatida tarbiyalanib shakllanishida xalqimiz tomonidan yaratilgan boy madaniy – ma'rifiy qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Bunga ilmiy – texnika va aqliy imkoniyatlar, ta'lim – tarbiya, tibbiy xizmat, milliy meros, milliy qadriyatlar, turli shakllarda namoyon bo'ladigan madaniyat durdonalari, til, adabiyot, san'at, xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, noyob tarixiy va madaniy yodgorliklar, arxitektura va boshqalarni kiritish mumkin.

Prezident Sh.Mirziyoyev o'zining saylovoldi uchrashuvlarida va prezidentlik davridagi ma'ruzalarida xalqimizning tarixi va ma'naviyatini bezab turgan bunday noyob yodgorliklar, ulug' siymolar haqida, ularning yoshlar tarbiyasidagi o'rni va roli haqida qayta – qayta ta'kidladilar. Jumladan, andijonliklar bilan bo'lgan uchrashuvda ta'kidlab aytdilarki, tarixga qarasak ham, bugungi kunga qarasak ham, Andijon zaminidan ko'p sohalar bo'yicha ko'plab buyuk, fidoyi insonlar yetishib chiqqaniga amin bo'lamiz. Chunki millat, el – yurt taqdiri uchun kuyish, milliy g'urur, or – nomus uchun bel bog'lab maydonga chiqish – Andijon ahliga xos fazilat. Mana, ulug' ajdodimiz Zahriddin Muhammad Boburni olaylik. Bu buyuk zot o'n ikki yoshidan boshlab Temuriylar davlatinisaqlab qolish uchun o'zini o'qa ham, cho'qqa ham urdi, hech qanday dushmandan ham, sinovdan ham qo'rqmadi. Qirq olti yillik umri davomida bir zum ham halovat bilgani yo'q. O'z avlodlariga Vatanga bo'lgan buyuk muhabbatini, ezgu fazilatlarini meros qilib qoldirdi.

Tahlil va natijalar: Yoshlarning komil insonlar, mustahkam oila vakillari bo'lib yetishishida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rni beqiyos. Mustaqil O'zbekistonning kuch–qudrat mabai–xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, yaxshilik, ahil qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab kelmoqda. O'zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangicha mazmun bag'ishlash, zaminimizda

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY JURNALI
VOLUME-2, ISSUE-9**

tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishining kamol topishiga erishish uchun zarur shart – sharoit yaratishda o'z ifodasini topmoqda.

Qadriyatlar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviy omil sanaladi. Qadriyatlar ta'lim – tarbiyaning muhim vositasi sifatida inson hayoti uchun, vujudning tirikligi, sihat–salomatligi, mehnati, bilimi, muomalasi kabilarga jiddiy ta'sir etadi. Yosh avlodda qadriyatlarga munosabatda bu xususiyatlarni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Jamiyat taraqqiy etgan sari umuminsoniy qadriyatlar ko'payib boraveradi. Masalan, erkinlik, tinchlik, tenglik, ma'rifat, haqiqat, ma'naviyat, go'zallik, yaxshilik, insonparvarlik, ijtimoiylik, demokratiya, qonun ustuvorligi va boshqalar. Bu tuyg'ular mustaqilligimizning yangi bosqichga ko'tarilishi jarayonida xalqimizning ong va shuuriga tobora mustahkamlanib bormoqda. Shuning uchun ham muhtaram Prezidentimiz "Navro'z falsafasida, Navro'z qadriyatlari-odamlar dardu–tashvishi bilan yashash, keksalarni hurmatlash, muhtoj oilalarga e'tibor va yordam ko'rsatish, adolat va xalqparvarlik faoliyatimiz mezoniga aylanmoqda", deydi.[2]

"Hammamizni tarbiyalagan, voyaga yetkazgan shu xalq. Barchamizga tuz-nasiba bergan ham – shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham aynan shu xalq", deydi hurmatli Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev[4]

Darhaqiqat, ishonch - ulug' tuyg'u. Ishonch-bu odamlarning dili va qalbini tozalovchi katta kuchdir. Ishonchning asosiy mazmunida halollik, adolat, sof vijdonlilik, poklik, so'z bilan ish birligi kabi axloq-odob fazilatlarini o'z ifodasini topgan. Ishonchning muhim shartlari-odamlar mehrini qozonish, marosim va ma'rakalarda qatnashish, keksalarga yordam va tasalli berish, nogiron va hastalarning holidan xabar olish, doimo insonlar bilan munosabatda bo'lish va boshqa shu kabilardir. Ishonchga erishish ezgu fazilatlar tufaylidir. Chunki qallob, firibgarlarga hech kim ishonmaydi. Ishonchning kushandasi aldanchilik. Odamlar senga ishonmas ekan, bu-baxtsizlik Alisher Navoiyga butun xalq ishonardi. Uning hurmati ham, bsyukligi ham, baxti ham shunda edi.

O'zbek xalqi qadim-qadimdan bir-birlariga ishonib kelgan. Ayniqsa, ishonchi bor kishilar elda e'tirozlangan. Uning bir og'iz so'zi bilan hal bo'lmayotgan ishlar ham bitib ketgan. Xalqimiz hayotda to'g'riligi bilan hurmat qozongan kishilarga ishonch bilan qaraganlar, uning nomini hamma joyda hurmat bilan tilga olganlar. Tarixdan ma'lumki, vatanini, xalqini sevgan kishilar xalqning ishonchiga sazavor bo'lganlar. Ular ezgu ishlari, toza xulqi bilan el-yurt manfaati yo'lida fidoyilik ko'rsatganlar. O'zbekistonni mustaqillikka olib chiqqan, mustaqillikni mustahkamlash uchun elim deb, yurtim deb jonkuyarlik ko'rsatgan Birinchi Prezidentimiz I.Karimov xalqimizning chinakam ishonchiga, mehriga sazavor bo'ldi. Bugungi kunda muhtaram Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevga ham xalqimizshunday katta ishonch bilan qaramoqda. Chunki uning rahnamoligida yurtimizda amalga oshayotgan obodonchilik, farovonlik, tub islohiy

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY JURNALI
VOLUME-2, ISSUE-9**

o'zgarishlar, xalqni baxtli-saodatli etish uchunolib borilayotgan ezgu tadbirlar, xalqaro do'stlik, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro hurmat, yoshlarni barkamol etib tarbiyalash borasidagi sa'y-harakatlar xalqimizda katta ishonch va hurmat paydo qilmoqda.

O'zbekiston yoshlari bu beqiyos hamho'rliklardan katta rag'bat va ilhomga to'lib, ulkan vatanparvarlik namunalarini ko'rsatishga intilmoqdalar. Ular o'zlarida bor iste'dodlarini namoyon etib, ilmu hunarda, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarda, mehnatda, sog'lom turmush tarzini shakllantirishda, fanda, san'atda, madaniyatda, sportdajasarot namunalarini ko'rsatmoqdalar. Yurtboshiga, bugungi va ertangi baxt-saodatli kunlarga, yurtning buyuk kelajagiga ishonch ularni yangi-yangi zafarli ishlarga otlantirmoqda. Bu ishonch yurtmizning xalqimizning baxtli kunlarida, buyuk o'zgarishlarda ifoda topmoqda. Bular Yurtboshining nazari tushgan, demak xalqimizning nazari tushgan yoshlardir.

Xulosa: Vatanparvar, fuqarolik tuyg'usi mustahkam, bag'rikeng, qonunlarni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qiluvchi, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga qat'iy ishonchli yoshlarni tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlarning ko'lami naqadar kengligini har bir vatandoshimiz ko'rib, xis etib turibdi. Buni xorijlik xolis kishilar ham tan olmoqda.

Yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bugungi kuning dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T.: "O'zbekiston" HMUY, 2018. II TOM. 479 bet.
2. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.: "O'zbekiston" HMUY, 2017.I TOM.
3. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T. "O'zbekiston" HMUY, 2017.
4. Harakatlar srategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanishlar sari. Risola. Nashrga tayyorlovchilar: M. Bekmurodov, Q. Quranboev, L.Tangirov. T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi HMUY, 2017.
5. Amir Temur o'g'itlari. T.: "Navro'z", 1992.
6. Turkiy xalqlar mafkurasi. TURON. T.: "Cho'lpon" 1999 yil

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY JURNALI
VOLUME-2, ISSUE-9
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ЗДРАВООХРАНЕНИИ

Исмаилов Улугбек Мехриддинович

Ташкентский государственный медицинский университет, студент 2 курса,
ismailovulugbek30@gmail.com

Аннотация. Статья посвящена использованию информационных технологий в медицине. Рассматриваются основные области применения информационных технологий в здравоохранении, включая электронные медицинские записи (ЭМК), системы поддержки принятия клинических решений, телемедицину и использование искусственного интеллекта для диагностики и лечения. Особое внимание уделяется обучению медицинских работников основам информатики и цифровизации процессов здравоохранения.

Ключевые слова: информационные технологии, медицина, электронные медицинские записи, искусственный интеллект, телемедицина, системы поддержки принятия решений.

Введение. В последние десятилетия информационные технологии и инновационные разработки в области цифровизации здравоохранения оказали значительное влияние на организацию медицинских услуг. Одним из наиболее заметных аспектов является создание интеллектуальных систем, которые способны обрабатывать и анализировать данные, а также помогать специалистам в принятии решений. Для медицинских работников важно не только иметь доступ к информации, но и понимать, как использовать технологии для оптимизации своей работы. Внедрение таких решений улучшает не только диагностику и лечение, но и организацию работы в больницах и клиниках, что позволяет значительно сократить время ожидания для пациентов и повысить уровень предоставляемых медицинских услуг.

